O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

bir maqsad sari harakatlanishi bir birlarini organish kabi muhum vazifalarni amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарафитдинов, Абдулла, and Мохинур Бойкулова. "Формирование эмоционально-эмоциональной сферы детей младшего школьного возраста." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 342-345.
2. Бойкулова, Мохинур, and Гозал Одилова. "Исследование проблем формирования лидерства зарубежными психологами." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 410-413.
3. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Abduakhadova Mehribonu, and Boykulova Mokhinur. "The Influence of Parents on The Leadership of Children in The Family-As A Psychological Factor in Parenting." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 122-128.
4. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Boykulova Mokhinur, and Abduakhadova Mehribonu. "Psychological Aspects Of Leader Traits In Boys And Girls In Different Family Settings." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 129-134.
5. Хасанова, Ирода, and Достон Гулямитдинов. "Развитие творческих способностей у детей раннего возраста." Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 15 (2023): 37-41.
6. Shakarboeva, Sh, and D. Gulomitdinov. "PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL VIEWS OF ABU RAIKHAN BERUNI AS A FACTOR OF EFFECTIVENESS IN THE EDUCATIONAL PROCESS." World Bulletin of Management and Law 21 (2023): 30-33.

ZAMONAVIY YOSHLARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MULOQOTNING ROLI

Arakulov Gayrat Tulkinovich,
Pardayev Xumoyun Farxod o‘g‘li,
Daminova Sabina Bahrom qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
arakulov.gayrat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kun yoshlarining kasbiy rivojlanishida pedagogik va psixologik muloqot, pedagog va o‘quvchi munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari, muloqotdagi psixologik yondoshuvlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Pedagog, psixologik munosabatlar, kasbiy rivojlanish, o‘quvchi, ijtimoiy munosabat, muloqotchanlik, psixologik muammolar, tushunish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida yosh avlodning kamol topshida olib borilayotgan salmoqli ishlar to‘g‘risida nutq so‘zlar ekan, jumladan, “Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag‘allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning eng samarali omili deb bilamiz. Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to‘pladi – ta’lim tizimi tubdan o‘zgarmoqda. O‘tgan olti yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030 yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o‘quvchining biri esa oliygohda o‘qishi uchun imkoniyat yaratiladi” deb ta’kidlaydi mamlakatimiz bosh rahbari.

Darhaqiqat, ta’lim va tarbiya shaxs kamolotida muxim jihat hisoblanadi, shu boisdan pedagogik va psixologik muloqat o‘z mohiyatida kasbiy rivojlanish mezonlarining birinchi umumlashtirilgan guruxini aks ettiradi. Shunga asoslanib, nafaqat tegishli mezon, balki kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish dinamikasini rag‘batlantiradigan samarali yondashuv sifatida pedagogik muloqotning mohiyati va mazmunini anglash muammosi juda dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday muloqotning hal qiluvchi sharti o‘qituvchi sub’yekti talaba tizimida o‘qitish mavzusining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro muloqotni amalga oshirish qobiliyatidir.

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiv metodlardan izchil foydalanish pedagogik va psixologik muloqotning usullaridan foydalanish chastotasining ko‘payishini ta’minlaydi. Shu bilan birga to‘liq tushunishga tez-tez duch kelinmaydi va aks ettirish darajasi tushunish darajasi bilan belgilanadi. Aslini olganda, anglashning o‘zi odatda o‘qitish fanining predmetlari va sohalarida muhimligini ochib berishga qaratilgan murakkab aqliy faoliyatning asosiy turlaridan biriga kiradi[1]. Ba’zan tushunish mantiqiy asoslarni belgilash orqali yuzaga keladi. Ko‘plab tadqiqotchilar ushbu konsepsiyada zamonaviy pedagogikadagi yangi paradigmatik tushunchalarga murojaat qiladi. Ular tushunish tafakkur orqali emas, balki dialog orqali sodir bo‘lishini ta’kidlaydilar. Bo‘lajak kasb egalarining tushunish qobiliyatini rivojlantirish ko‘proq pedagogik va psixologik muloqot natijasidir. Bunday natijani zamonaviy umumiy va pedagogik ta’limning markaziy pedagogik vazifalari sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Fenomenologiyada tushunish, hodisaning ma’nosini anglash qobiliyati darajasida ko‘rib chiqiladi. Tushunish aniq ichki bog‘liqlik, ko‘rib chiqilayotgan hodisalarni tashkil etish hissi bilan tavsiflanadi. Tushunishning psixologik mexanizmlariga identifikatsiya, proyeksiya, ijtimoiy idrok, hamdardlik va sezgilar kiradi. Tushunish aktini to‘ldirish mazmuni bilan o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, o‘z kasbiy faoliyati haqidagi pedagogik vaziyat, tushunchalar yoki g‘oyalar bilan bog‘liqlikka ham e’tibor qaratish lozim. Ilmiy adabiyotlarda bilishning uchta darajasi (tanishish, tanib olish, yodlash) deb nomlangan sof mexanik tushuncha mavjud. Kasbiy rivojlanishda yuqoridagi sof mexanik tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaning affektiv, empatik reaksiyalariga, hissiy holatiga, kayfiyatiga qarab har safar

individual yondoshmoq lozim. O‘z navbatida pedagogik o‘zaro ta’sir samaradorligi talabaning va o‘qituvchining bir xil aloqa usulini muvofiqlashtirilgan holda idrok etishiga bog‘liq. Agar bu darhol muvaffaqiyat qozonmasa, unda barcha tomonlarni qoniqtiradigan usullar tanlanadi.

Kasbiy rivojlanishning muhim mexanizmi bu – o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan mustaqil ta’limning mavzusini belgilashdir. Har bir pedagog o‘z pedagogik amaliyotini tahlil qilish asosida faoliyatiga doir muammoli sohalarni aniqlaydi va bir necha yil davomida ishlaydigan mavzuni belgilaydi, muammoning sabablarini o‘rganadi va yechimlarni izlaydi[2]. Zamonaviy yoshlar puxta bilim egallashi uchun pedagog xodimlarga quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanish imkoniyatini berish lozim hisoblanadi: a) o‘qitayotgan fani sohasida, b) pedagogik va psixologik bilimlari sohasida, c) metodik imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha (pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning shakl, usul va uslublari), d) axborot kompetentliligini oshirishda (kompyuter texnologiyalari, internet-resurslar), e) muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda (ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri), f) shaxsiy kompetensiyalarni takomillashtirishda (imij, muloqot madaniyati, yetakchilik qobiliyati).

Ma’lumki pedagogik va psixologik muloqot qoida tariqasida nutqiy aloqa bilan boshlanadi. Shu bois nutq qobiliyatlari o‘qituvchi va talabaning kasbiy qobiliyatlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Muloqot paytida vujudga keladigan o‘ziga xos pedagogik vaziyat talabada ma’lum birlashmalarni keltirib chiqaradi. Ular ma’lum cheklovlar mavjudligiga, ruxsat etilgan o‘zgaruvchanlik darajasiga qarab farqlanadi. Ushbu belgilarning birortasini o‘zgartirib, vaziyatni umumiy qabul qilingan me’yorlarning buzilishiga olib kelish mumkin va shu asosda yana bir pedagogik vaziyat yuzaga keladi. Bundan tashqari dialogning samaradorligi oldindan belgilangan vazifalarga bog‘liq bo‘lib, ular izchil va maqsadga muvofiq ravishda refleksli harakatlarni o‘z ichiga oladi. Oliy o‘quv yurtida bunday muloqot agar u cheklanmagan bo‘lsa talabaning kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Muloqotdagi muvozanat qoida tariqasida o‘qituvchi tomonidan belgilanadi va uning vazifasi o‘quv jarayonining barcha didaktik normalarini bajarish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda o‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbiy rivojlanishida pedagogik va psixologik muloqotning va ta’limning zarurligi, pedagogik faoliyatning xususiyatlari va uning ijtimoiy roli bilan pedagogik mehnatning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlari, jamiyatning ehtiyojlari, ilm-fan va amaliyotning evolyutsiyasi, pedagoglarga bo‘lgan talablarning oshib borishi, uning jamiyatdagi jarayonlar va holatlarning o‘zgarishiga tezkor moslashish qobiliyati, o‘z faoliyatini qayta qurishga, murakkab kasbiy masalalarni samaradorlik bilan yechishga tayyorligi bilan bog‘liq uzluksiz ta’lim tendensiyalari orqali asoslanadi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Богданова, Т.М. Психология. Формирование волевых качеств в подростковом возрасте – Мн., 2008.

2. Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo‘llanma.T.2003 yil.

3. Аракулов, Г., & Саидазимова, М. (2023). Семья и образование как средства борьбы со стрессом у подростков. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(1), 357-360.

4. Аракулов, Г. (2022). Pedagogik va psixologik mashg‘ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda muhim fenomen sifatida. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(3), 54-56.

5. Аракулов, Г. (2022). Факторы, влияющие на формирование агрессии у подростков. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(3), 106-109.

OILAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA BOLANING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASH JARAYONI

Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li,
Asadullayeva Sevinch
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialali

Annotatsiya: Ushbu tesizda oilaviy munosabatlar tizimida o‘z-o‘zini anglash jarayoni haqida, hozirgi zamon oilalarida bolalarning menini anglashning dozarb muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy tumush, vatanparvarlik, qadriyat, o‘zlik, shaxsiy men, farzand, kognitiv men, reproduktiv salomatlik, ota-ona, komil inson.

Oilaviy turmush inson xayotining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shu boisdan jamiyatning qonun qoidalarga nisbatan munosabat ham oiladagi shaxslararo turli tuman muammolarda, muloqotda, fikr almashinuvida, munozaralarda, o‘z ifodasini topadi, binobarin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash oilaning naqadar mustahkam bo‘lishiga, ota-ona munosabatlarida oliyjanob xarakter hislarini, bolada yuksak ma’naviy hislarni shakllantirishga bog‘liqdir. Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalashdek yuksak va mas’uliyatli vazifa ota-onaga, oiladagi kattalarga yuklatilgandir.

Rus tadqiqotchilarining ko‘pchiligi oilada ota-onaning bolalar munosabatlariga yoki juda keng, yoki bolaning psixik rivojlanishi umumiy nuqtayi nazardan juda tor manoda yondashadilar. Masalan, ular asab buzilishlari paydo bo‘lishi, ruhiy holatlarning namoyon bo‘lishi, himoya mexanizmlari shakllanishiga tasiri jihatlaridan o‘rganib chiqqan.

Ko‘plab psixologlar fikriga ko‘ra, inson shaxsidagi yetakchi sifatlarining shakllanishi va “Men” konsepsiyasi asoslarining yaratilishi aynan ontogenezning dastlabki 5-6 yilida ro‘y berad. O‘zini-o‘zi anglash masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili bizga o‘zgaruvchilarning kattagina qismi kichik ijtimoiyguruhsifatida hayot tarzini oilada aks ettiruvchilarni tashkil qiladi, deyishimizga imkon beradi. Tadqiqotchilar buni bolalarda “Men”konsepsiyasining shakllanishida ota-onalarning o‘zaro munosabatlari muhim biromil ekanligi bilan bog‘laydilar. Ota-onalarning bola bilan o‘zaro munosabati va uning o‘zini anglashi